

G'ARBIY TURK XOQONLIGINING TASHKIL TOPISHIDA BUYUK IPAK YO'LINING TUTGAN O'RNI VA O'RTA OSIYODAGI ETNOSIYOSIY JARAYONLARGA TA'SIRI

Sultonov Shohruh Eshberdiyevich

Al-Buxoriy universitet, tarix fakulteti o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Buyuk ipak yo'li, Turk xoqonligi, G'arbiy Turk xoqonligi, etnosiyosiy jarayonlar, Afrig'iylar, Choch, Farg'ona, sug'diylar, turkiylar.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buyuk ipak yo'lining Turk xoqonligining ikkiga bo'linishiga ta'siri, o'sha jarayonlar natijasida G'arbiy Turk xoqonligi hududida sodir bo'lgan etnosiyosiy jarayonlar haqida ma'lumot berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

O'zbekiston va qolaversa, Markaziy Osiyo tarixining ilk o'rta asrlar bosqichi (V-VIII asr birinchi yarmi) o'ziga xos tarixiy jarayonlari bilan ahamiyatlidir. III- IV asrlarga kelib, Kushon va Qang' kabi davlatlar tanazzuli kuchayib, ular o'miga siyosiy jihatdan mustaqil va mahalliy ma'muriy boshqaruviga ega davlatlar (Afrig'iylar, Choch va Farg'ona) va davlat uyushmalari (Sug'd va Toxariston konfederasiyalar) vujudga keldi. Ularning shaklanishida mintaqada kechgan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlar muhim rol o'ynadi. Xususan, ikki yirik etnik guruh: hind-yevropa tillari oilasiga mansub sug'diylar, xorazmiylar, boxtariylar va oltoy tillari oilasi vakillari - turkiylarning o'ziga xos sinkretik yaqinlashuvi kuchaydi. Prototurk qabilalari uyushmasi "turk" nomi ostida mintaqada yetakchi mavqeyga chiqq boshladi. Natijada, bu hodisa etnomadaniy jarayonlarni takomillashtirdi. Marvdan Xitoy devoriga qadar turli etnoslar, jumladan turkiy va sug'diy komponentlar simbiozi ro'y berdi. Bu yangi tipdagi davlatlarining siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivoji mahalliy xalqlarning shakllanishiga zamin hozirladi.

V-VI asr o'rtalarigacha eftaliylar Markaziy Osiyo siyosiy va etnomadaniy tarixida o'ziga xos o'rin tutgan bo'lsa, 555 yilda xoqonlik turklarining ularga bergan zarbasi so'ng bu davlat mavqeyiga putur yetgan. Shundan so'ng eftaliylar batamom mahalliy aholi orasiga singishib, sug'diy etnik komponentda eftaliylar salmoqli o'rin tutgan. Bu esa sug'diylarning turkiylashuvi jarayoni tezlashuviga ham xizmat qilgan.

Eftallar davrida aholi asosan vohalarda istiqomat qiluvchi o'troq ziroatkorlar hamda dasht va cho'llarda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchilar tashkil etgan. Mintakaning shimoli-sharqiy kismalari (hozirgi Qozog'iston), Oltoy va Tyanshan etaklari, Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoyda ko'prok ko'chmanchi hayot tarzi ustuvor bo'lsa, mintakaning janubi-g'arbiy qismlarida, asosan, Sharqiy Turkiston, Amudaryo - Sirdaryo oralig'i, Shimoliy Xindiston, Afg'oniston, Xuroson kabi hududlarida o'trok vohalar mavjud bo'lib, aholisining aksariyati shahar va kishloklarda istikommat

kilgan va xo‘jalik hayotida dehqonchilik, hunarmandchilik va tijorat katta o‘rin tutgan.¹ Mintakaning har ikkala kismida ham sersuv daryo havzalari, ham dasht va cho‘llar bo‘lib, ulardan biri doimiy ravishda o‘trok aholini o‘ziga jalb kilsa, ikkinchisida esa qadimdan ko‘chmanchi aholi o‘z chorvalari bilan ko‘chib yuradigan maskanlar edi. Xususan, mazkur mintaqaning ko‘chmanchi muhit ustuvor shimoli-sharqiy xududlarida Ili, Irtish, Chu, Talas kabi daryolarning mavjudligi bu yerlarda ko‘chmanchilar bilan birga qadimdan o‘troq aholining ham istiqomat qilishiga sharoit yaratgan; Sharqiy Turkiston, Amudaryo - Sirdaryo oralig‘i va Xurosonda birmuncha yirik dashtlar bilan birga cho‘llarning mavjudligi, Xindikush togi etaklarida esa yaylovlar mavjudligi bu yerlar aholisining bir kismini ko‘chmanchi chorvadorlar tashkil etishiga zamin yaratardi.

Bu davrda Markaziy Osiyoning shimoli-sharqiy qismlarida asosan, oltoy tillari oilasiga mansub xalklar, aksariyati turkiy etnoslar va kisman mo‘g‘ullarning ajdodlaridan iborat edi. Ular orasida 50 ga yaqin kabilalarni birlashtirgan *TELE* qabilalalar ittifoqi eng yirigi edi. Ular keng xududlarda ko‘chib yurishsa ham o‘zlarining doimiy yashaydigan muayyan bir xududlari bor edi. Mazkur mintakaning janubiy-g‘arbiy kismidagi axolining katta bir kismini esa sharqiy eroniy tilli xalklar: sug‘diylar, xorazmliklar, baktriylar, xo‘tan-saklar tashkil qilardi. Sharqiy Turkiston axolisining bir kismi, anikrog‘i, Tyanshan tog‘larining janubiy-sharqiy qismida qadimiy xind-yevropa xalqlaridan biri - to‘xorlar ko‘pchilikni tashkil kilib, yaqin ko‘shnilari - turkiy etnoslar bilan uzviy etnomadaniy aloqada edilar. Turfon, Qorashaxr va Kucha kabi voxa xukmdorliklaridagi shahar axolisining katta kismini to‘xor tilli etnoslar tashkil qilib, “to‘rt To‘xor o‘lkasi” deb atalardi.² Aynan anashu mintaqaning turli xududlarida tabiiy sharoit tasiri natijasida joylashgan aholining aralashuv jarayoni bugungi O‘zbekiston hududida jadal rivojlandi.

Masalan, bu davrda Sirdaryoning o‘rta xavzalarida o‘nlab katta-kichik shaharlar kad rostlagan bo‘lib, ularning axolisini, asosan, turkiylar va sug‘diylar tashkil etardi.³ Bunga o‘sha davrdagi xitoy va vizantiya manbalaridagi ma‘lumotlar hamda ularning turkiy va sug‘diy yoki turkiy-sug‘diy asosli joy nomlari guvohlik beradi.⁴ Mazkur shahar va o‘trok axoli maskanlarining katta bir kismi Turk xoqonligi davrida vujudga kelgan bo‘lsa-da, kolgan bir kismi xoqonlik tashkil topgunga kadar ham yirik axoli maskanlari sifatida ma‘lum edi. Turk xoqonligi tashkil topganining ilk o‘n yilliklarida xoqonlikka tashrif buyurgan Vizantiya elchilarining ma‘lumotlariga asoslanilsa, mazkur hududdagi shaharlar aholisining asosiy qismini turkiylar tashkil qilgani ayon bo‘ladi. VII asr 30-yillarida Yettisuv - Taroz - Isfijob - Choch yo‘nalishi bo‘ylab janubga yo‘l olgan xitoy rohibi Syuan Szan va Sharqiy Turkistonning janubi orqali yo‘lga chiqqan sayyoh Xoy Chao (726 y.) esdaliklaridan bu hududdagi aholi manzillarida turkiylar va sug‘diylar ko‘pchilikni tashkil etgani ayon bo‘ladi.⁵ Buni arablar davrida yaratilgan “Hudud ul-olam” asaridagi ma‘lumotlar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, asarda Shalot, Navkas, Shulhiy, Taror, Takonkas, Farunkas, Mirkiy, Navikas kabi asosan turkiy va sug‘diy aholi yashaydigan shaharlar tilga olinadi.⁶ Demak, O‘zbekistonning shimoliy hududlarida turkiy va so‘g‘diylarning aralashuvi kuchli bo‘lagan. Lekin, bu davrda O‘zbekistonning markaziy va janubiy hududlarida etnomadaniy jarayonlar qay darajada sodir bo‘ladi? Takidlash lozimki, O‘zbekistonning bu ikki hududlarida ham etnomadaniy jarayonlar shimoldagidan kam darajada sodir bo‘lmaydi. Chunonchi, Kushonlar, Xionitlarning hukumronligi davrida, yani Eftallarning kirib kelgunigacha bo‘lgan vaqt davomida turkiylarning katta bir qismi O‘zbekiston hududlariga kirib kelgan va allaqachon mahalliy aholi bilan aralashish jarayonini boshlagan edi. Eftallar va turk xoqonligining kirib kelishi bu jarayonning yanada kuchayishiga sabab

¹ Бобоёров Ф. Ғарбий турк хоқонлигининг Давлат тузуми//диссертация. Тошкент: 2012. Б 67.

² Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрлардаги сиёсий-ижтимоий-иқтисодий ва маданий муносабатларда Суғд ва Чоч // O‘zbekiston tarixi - Тошкент, 2009. - № 1. - Б. 17.

³ Бобоёров Ф. Ғарбий турк хоқонлигининг Давлат тузуми//диссертация. Т.: 2012. 160 бет.

⁴ Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрлардаги сиёсий-ижтимоий-иқтисодий ва маданий муносабатларда Суғд ва Чоч // O‘zbekiston tarixi - Тошкент, 2009. - № 1. - Б. 17.

⁵ Бернштам А.Н Тюрки и Средняя Азия. Тошкент. - С. 194

⁶ Худуд ул-олам(Мовароуннахр тавсифи). Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 15–19.

bo'ladi. Bu holatni sug'd bitiklarida, garchi keyinroq yaratilgan bo'lsada, o'sha davda sodir bo'lgan jarayonlarni yoritib bergan fors va arab manbalarida yorqin ko'ramiz.

Masalan, V-VIII asrlarda Buxorodagi aholining etnik tarkibiga nazar tashlasak, "Hudud ul-olam"da Buxoroning katta va obod shaharligi, Poykentning esa boy shahar ekanligi eslatiladi.⁷ A.Asqarovning arxeologik tekshiruvlar natijasida bergan ma'lumotlariga qaraganda Buxoroga bo'ysunuvchi 22 ta mulkning 15 tasi Buxoro vohasi mudofaa devori ichida, 7 tasi tashqarisida bo'lgan. Markazga Tavovis, Quyi Harqana, Hitfar, Qoxushtivon, Yuqori Samjon, Quyi Samjon, Yuqori Faraviz, Quyi Faraviz, Zar, Farg'odat, Farob, Poykent kabilar bo'ysungan⁸ va bu manzillarda istiqomat qiluvchi aholi orasida turkiylar salmoqli bo'lib, ularning ta'siri kuchli bo'lgan. Masalan, Buxoro mulkligining IV-V asrlarga oid mis tangasi sirtiga "Avsar hukmdor" yoki "Chavandoz hukmdor" nomi bitilgan.⁹ Demak, Buxoro hokimlari turkiylardan bo'lgan. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi ma'lumotlar ham buni tasdiqlaydi. Chunonchi, Turk shahzodasi Abruy xalqqa zulm qilgach, boy savdogarlar va dehqonlar o'z yurtlarini tark etib, "Turkiston va Taroz(yaqinida) bir shahar bino qilib", uni o'z yetakchilaridan biri Hamuk nomi bilan "Hamuket deb nomlaydilar". Buxoro ahli Turk yabg'u-xoqoni Istemi o'g'li Biyog'u, (Buyuk yabg'u) Qoracho'rindan yordam so'raydi. Yabg'u-xoqon o'z o'g'li El Arslon(Sheri Kishvar)ni Buxoro vohasida tartib o'rnatishga jo'natadi. U Poykentda Abruyni qatl ettirib, otasining roziligi bilan Buxoroni o'z tasarrufiga oladi. El Arslon(Sheri Kishvar) Hamukatga odam yuborib, Buxorodan ketgan aholini qaytaradi. "Hamuketdan kelgan har bir kishi(amir)ning yaqin kishilaridan bo'ldi"¹⁰, - degan buyruq beradi. Voqyealarni taqlil qilsak, Abruy turq shag'zodasi xitoy tazyiqi ostida o'z urug'i bilan Buxoroga ko'chib keladi. Oddiy aholi uni qo'llab-qo'vvatlaydi. Etiborlisi, Hamuketga (Turkiston, Taroz) ketganlar u yerda qiyinchiliksiz joylashadi, Abruy qo'zg'aloni bostirilgandan so'ng ham ularning barchasi qaytmaydi. Qolaversa, El Arslon va u bilan birga kelganlar Buxoroda qolish istagini bildiradi. Qoracho'rin bunga ruxsat beradi. Demak, turkiylar va sug'diylar orasidagi uzoq vaqtlik aloqalar ularning xo'jalik turmush tarzida o'xshashlikni keltirib chiqargan. Natijada nafaqat turkiylarning o'troflashuvi, balki, Sug'diylarning turkiylashuv jarayonlari ham sodir bo'ladi. Mahmud Qoshg'ariy: "Balosog'unliklar sug'dcha va turkcha so'zlaydilar. Taroz va Madinat al-Bayza (Sayram) shaharlarining xalqlari ham sug'dcha va turkcha so'zladilar. Ular (sug'diylar) Samarqand va Buxoro o'rtasidagi Sug'ddan bo'lib, turklashib ketganlar"¹¹, deb ta'kidlaydi. Garchi bu voqyea X-XI asrlarda bo'lsada, assimilyasiya jarayoni natijasi bo'lib yuqoridagi fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Bu holat nafaqat Buxoroda balki boshqa mahalliy hokimliklarda ham xuddi shu xolda sodir bo'ladi. A.Otaxo'jayev: 600 yildan 760 yilgacha Kesh mulkini boshqargan sakkiz nafar hukmdorlarni sanab ular orasida mahalliy sug'diylar va turkiylar bo'lgan. Jumladan, Kesh viloyatidagi Xuzor mulkining hokimi Subug'ro turkiylardan edi¹², - deb ma'lumot beradi. Qolaversa, turkiy qabilalarning bugungi O'zbekiston hududida to'liq joylashganlagini Erondagagi Sosoniylar hukumronligigi doir manbalardagi ma'lumotlarda ham ko'rsak bo'ladi. Masalan, IV asrda Sosoniylar xionit qabilalarini Vizantiyaga qarshi urushga jalb etganlar. 502 yilda shohanshoh Kavad (Qubod) eftalit qabilalari bilan birgalikda Vizantiyaga qarshi yurish qilgan, 503 yilda esa eftalit qabilalari Kavkazda hunlarga qarshi urushganlar. 527 – 532 yillarda Sosoniylar Vizantiyaga qarshi urushda savir qabilalarini jalb etganlar. Xusrav I Anushirvon mamlakatini ko'chmanchi turkiy qabilalarning bostirib kirishidan saqlash maqsadida o'zining chegara yerlarini turkiy qabilalarning o'zlariga qo'riqchilik uchun topshirgan. al-Mas'udiy

⁷ Худуд ул-олам(Мовароуннахр тавсифи). Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 11–12.

⁸ Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Б. 31./ Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро (археологик лавҳалар ва тарих). – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 46–51.

⁹ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари - Тошкент, "ART-FLEX" 2010. - Б. 73.

¹⁰ Наршахий. Бухоро тарихи // Мерос туркуми. - Т.: Камалак, 1991. - Б. 90–91

¹¹ Махмуд Кошғарий. Девону лугатит-турк. 1-жилд. – Б. 65.

¹² Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари – Тошкент: ART-FLEX, 2010. - Б. 80.

ma'lumotiga ko'ra, u Kavkaz tog'larida g'ayridinlarga qarshi Bob al-Abvob (Darband) qal'asi va uzunligi 40 farsax (1 farsax – taxminan 6 – 7 km) bo'lgan devor qurdirib, uning darvozalarini qo'riqlash uchun xazar, alan, as-sarir (savir) va turklarning turli toifalariga mansub bo'lgan qabilalarni joylashtirgan. Chegara yerlarning hokimlari lavozimiga asosan eroniy bo'lmagan xalqlar vakillari (xionitlar, eftalitlar, xazarlar, turklar, daylamiylar, armanlar, gruzinlar va boshqalar) tayinlangan. Ular "chegara posboni" ma'nosini anglatuvchi yuksak marzbon unvoniga ega bo'lib, Sosoniylar saroyida oliy harbiy tabaqa qatoriga kiritilgan Xusrav I Anushirvonning eng yaqin odamlaridan biri Katulf ismli eftalit bo'lgan.¹³ Bundan ikki jihat yanada oydinlashadi. Birinchidan, turkiylarning Markaziy Osiyoga kirib borishi shu darajada chuqur bo'lganki, ular Sosoniylar davlati hududlarigacha kirib borgan. Shuningdek, Sosoniy hukumdorlar turkiylar hujumiga qarshi turkiy qabilalarning o'zidan foydalangan. Natijada ular bu chegara hududlariga oilaviy ko'chib kelishgan albatta. Turkiylarning bunday joylashuvi turkiyla va mahalliy aholi asimiasiyasi jarayoni O'zbekistonning yeng janubiy hududlarida ham nixoyatda kuchli bo'lganligini ko'rsatadi.

Bugungi Farg'ona vodiysida ham turkiy va mahalliy aholining aralashuv jarayoni jadal davom etadi. Xatto bu hol u yerda boshqa hududlarga nisbatan kuchli sodir bo'ladi. Buni ayniqsa manbalardagi Bahrom Chubin haqidagi ma'lumotlar misolida yanada aniqroq ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, Bahrom Chubin Xusrav II Parvizdan Eron taxtini tortib olgach, bir yil taxtda o'tiradi va hatto o'zining surati tushirilgan tangalar chiqarishga ham ulguradi 591 yilda arman, gruzin va vizantiyaliklarning Xusravga sodiq qolgan fors qo'shinlari bilan birlashgan harbiy kuchlari Armanistondagi Balarat daryosi yonida Bahrom Chubin askarlarini mag'lubiyatga uchratadilar Shundan keyin Bahrom Chubin sharqqa qochib, Farg'ona turklari huzurida panohtopadi U Barmuda ismli turk hoqonining do'sti va maslahatchisi bo'lib qoladi va uning qiziga uylanadi.¹⁴ Takidlash lozimki, ma'nbalardagi ma'lumotlarga qaraganda Barmudaning avlodlari Farg'ona hududidagi hukumronligi Eftallarning hujumidan oldin boshlangan. Agar manashu ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, Farg'onani ham turkiylar boshqaruvi ostida asimilasiya jarayoni qanday bo'lganligini anglash qiyin bo'lmaydi.

Bunday holni nafaqat Farg'ona balki Ustrushona muzofatida ham kuzatish mumkin. Chunonchi, Ibn Havqal "Kitob surat ul-ard" asarida Ustrushonalik turkiy sarkarda Haydar ibn Kovusni tilga oladi. Ma'lumki, u Vizantiya imperatori Feofan vizantinskiyni mag'lub yetib, xalifalikka qarshi 815 yilda Bobek boshchiligida, Ozorboyjonda, ko'tarilgan qo'g'alonni bostiradi. Uning xalifalik oldida bundan tashqari yana bir qancha xizmatlari ham mavjuddir.¹⁵ U keyinchalik, xalifalik poytaxtidan Ustrushonaga qaytadi. Ibn Havqalning yozishicha, buning boisi Haydar ibn Kovusning ota-bobolari ushbu hududda qadimdan hukumronlik qilib kelgan va u yerni tark yetayotganda o'g'liga qoldirgan bo'lgan.¹⁶ Bundan anglashiladiki, Ustrushonaning hokimlari ham turkiylardan bo'lgan va turkiy ko'chmanchi va o'troq aholining aralashuv jarayoni bu hududa ham kuchli davom yetgan bo'lgan. Ta'kidlash lozimki, Haydar Ibn Kovus haqidagi ma'lumotlar garchi VIII asr ohiri IX asr boshlariga tegishli bo'lsada, Ustrushonada keyingi yillarda oli borilgan areologik tadqiqotlar natijasida o'rganilgan manzilgohlar¹⁷ va mozorqo'rg'mlar¹⁸ yuqoridagi fikrlarni yana bir bor isbotlaydi.

Xullas, shimoldan tez-tez yo'nalib turadigan turkiylar oqimi bu holning uzulib qolishiga yo'l

¹³ Камолитдин Ш.С. Сомонийларнинг келиб чиқиши масаласига доир. Б 3

¹⁴ Камолитдин Ш.С. Сомонийларнинг келиб чиқиши масаласига доир. Б 7

¹⁵ Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. (Arab tilidan tarjirna va izohlar muallifi Sh. S. Kamoliddin). - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. 23-24-b.

¹⁶ Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. (Arab tilidan tarjirna va izohlar muallifi Sh. S. Kamoliddin). - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. 29 b.

¹⁷ Gritsina A.A. Qadimiy Zomin (taix, arxeologiya, numizmatika, etnografiya) T.: "Muharrir nashriyoti", 2018./ qarang – Грицина А.А. Уструшанские были.- Т.: "Издательство народного наследия им. А. Қадқри", 2000./ qarang - Грицина А.А. Археологические памятники Скардари́нской области. Т.: "Фан", 1992.

¹⁸ Toshboyev F. E Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati. T.: "Tafakkur qanoti", 2011.

qo'ymagan. Chunonchi, arab sayyohi Ibn Haldun "Dasht bu oddiy bo'lmagan hayot generatori"¹⁹- deb yozganida u tamoman haq yedi.²⁰

Umumiy holda aytadigan bo'lsak, bugungi O'zbekistonning janubi va markaziy hududlarida xalqlarning aralashuvi jarayoni V asr oxiridan boshlab nihoyatda kuchayadi. Albatta bunga o'sha davrdagi siyosiy jarayon o'zining ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Chunonchi, VI asr o'rtalarida tashkil topgan ilk turkiy davlat - Birinchi Turk xoqonligi mintaqada kechgan siyosiy jarayonlar natijasi edi. Birinchi Turk xoqonligining (552-603)²¹ vujudga kelishida davlat yadrosi turkiylar va o'troq madaniyat vakillari sug'diylarning o'zaro munosabatlari muhim o'rin tutdi. Qolaversa, O'rta Osiyo vohalarida o'troq madaniyatga Markaziy Osiyoning dasht va cho'l mintaqalariga nisbatan erta kirishilgan edi. Bu ko'p jihatdan suv zahiralari va iqlim bilan ham bog'liq edi. Ammo tabiiy sharoit mintaqada o'troq va ko'chmanchilarning yagona tarixiy-madaniy makon yaratishiga to'sqinlik qilmadi va ilk o'rta asrlardagi turk-sug'd munosabatlari o'rnini belgilab berdi. E'tirof etish kerakki, Markaziy Osiyoda antik davrdan o'rta asrlar davriga o'tish bosqichida mintaqadagi turkiy va sharqiy eroniy tilli etnoslarning simbiozi natijasida yuksak darajadagi sivilizasiya vujudga keldi.

Markaziy Osiyo ko'chmanchi aholisining iqtisodiy hayoti, asosan, chorva mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashib, ular o'zlarini dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta'minlay olmas edi. Bu iqlim sharoiti, o'troqlashuv jarayonining sustligi, shaharsozlik madaniyatining yuqori emasligi bilan izohlanardi. Biroq ular yashagan hududdagi foydali qazilmalar ko'chmanchi hayot kechirgan turkiy qabilalarga ularni qazib olish, ma'danlardan metallarni ajratish va ularga ishlov berish kabi texnologiyani o'zlashtirish imkonini bergan²². Natijada ular metallga, ayniqsa, temirga ishlov berish texnologiyasida yetakchi bo'lib, buni ular keyinchalik O'rta Osiyoga ham olib kelganlar.

Markaziy Osiyo qabilalarining dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji dastlab, yaqin qo'shni Xitoy hisobidan, tinch yoki harbiy yurishlar natijasida qondirilgan. Ammo ular xunlardan farqli holda, milodning boshlaridan o'zlari ham dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib, shaharsozlik ishiga bosh qo'shdilar. Bunda ularga Ipak yo'li manzilgohlarida yashovchi sug'diylar yaqindan hamkor bo'lganlar. Xoqonlik hududiga kelib joylashgan ko'p sonli o'rtaosiyolik savdogar, hunarmand va dehqonlar ko'chmanchilarning o'troqlashuv jarayonini tezlashtirdi. Bu holat mintaqada turkiy, sug'diy va xitoy munosabatlarini belgilab berdi. Turkiylar va sug'diylarni umummanfaat birlashtirgan bo'lsa, Xitoy ularga nisbatan goh sherikchilik, goh raqiblik yo'lidan bordi.

VI asrdan turkiylar birlashib, boshqa hududlarni egallashda nafaqat harbiy, balki diplomatik usuldan ham unumli foydalandilar. Ularga bu ishda Sug'd diplomatiyasi qo'l keldi. Bu boradagi sug'diylarning diplomatik qobiliyati yangi tashkil topayotgan turkiy davlat hukmdorlari nazaridan chetda qolmagan edi. Turkiylarning mustaqil siyosati tarafdori bo'lgan asli buxorolik, Gansuda yashovchi sug'diylardan bo'lgan Annapanto (Naxband) 544 yilda Xitoy imperatori saroyiga turkiylar elchisi bo'lib borgan edi. Xoqonlik qaror topgach esa, Dulan xoqon (To'nga Turon)ning (588-599/600) eng yaqin maslakdoshi yana bir buxorolik An Suy-sze bo'lib, xoqonning yetakchi maslahatchisi sifatida xitoyliklarning turkiylarga nisbatan yuritayotgan siyosatiga jiddiy qarshilik ko'rsatgan shaxs sifatida tarixda qoldi. Shibi (Sivar) xoqon (609-619) saroyida xizmat qilgan chochlik Shi-Shi Xusi esa, Sharqiy Turk xoqonini Xitoyga yon bosmaslikka chaqirganlardan biri edi²³. Turkiy bitiklardan biri "To'nyuquq"da keltirilishicha, "xoqonlar - qahramon, maslahatchilar - dono bo'lishgan"²⁴. Shundan ko'rinadiki,

¹⁹ Toshboyev F. E Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati. T.: "Tafakkur qanoti", 2011. 118 b.

²⁰ Toshboyev F. Ustrushona chorvadorlarining antic davrdagi madaniyati. Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014.

²¹ Насимхон Р. Турк хоқонлиги. Тошкент: Халқ мероси, 1993. Б-33.

²² Рахманалиев Р. Империя тюрков. - С. 91-95.

²³ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-сугд муносабатлари – Тошкент: ART-FLEX, 2010. - Б. 55.

²⁴ Рахманов Н.А. Орхоно-Енисейские памятники и тюркские эпосы: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. -Ташкент, 1991. - С. 22.

sugʻdiylar mintaqada Xitoyga bas keladigan davlat sifatida Turk xoqonligining kuchayishi va hududdagi geosiyosiy vaziyatni qoʻlga olishidan, sherikchilikda oʻzlariga yaqin turkiylar bilan hamkor va ittifoqchi boʻlishdan manfaatdor boʻlishgan. Turkiylar uchun ham sugʻdiylarning siyosiy ittifoqchiligi va iqtisodiy sherikligi yanada muhim edi.

Aynan ana shunday muhit turkiy sardorlarini yangi mustaqil davlat tuzishga undadi va Bumin qoʻshinlari va avarlar oʻrtasida 552 yilda Buyuk Xitoy devorining tashqarisidagi hozirgi Xeybey viloyatida jang yuz beradi. Magʻlub boʻlgan Avar xoqoni oʻzini oʻldirdi. Shu asnoda mustaqil Turk xoqonligiga asos solindi. Turk xoqonligining oʻzi ilohiylashtirilib, “Koʻk Turk xoqonligi” deb yuritildi.²⁵

Avarlar ustidan qozonilgan gʻalaba Turk xoqonligining mintaqadagi siyosiy obroʻsini oshirdi. Natijada, Xitoy hukmdorlari turk hukmdorlari bilan aloqalarini oilaviy nikoh orqali mustahkamlashga harakat qildilar. Jumladan, 551 yilda Bumin xoqon Gʻarbiy Vey davlati malikasi Chan Lunga uylangan boʻlsa, 558 yilda Muxan xoqon oʻz qizi Ashinani Shimoliy Chjou hukmdori Min-diga uzatdi. Shuningdek, Chjou va Suy davlatlari oʻz malikalarini turk xoqonlariga kanizak sifatida yuborganlar²⁶.

Muxan xoqon Xitoyga nisbatan ehtiyotkor siyosat yuritdi. U Shimoliy Si sulolasi (550-577) bilan yaqinlashib, Shimoliy Chjouga (557-581) nisbatan ziddiyatda turdi. Baʼzan aksincha ham boʻlgan. Jumladan, Muxan xoqon 562-564 yilda Shimoliy Chjou bilan ittifoqda Shimoliy Siga qarshi urush olib bordi. “Shimoliy Chjou sulolasi solnomasi. Turklar haqida qissa” qismida keltirilishicha, Shimoliy Chjou oʻz navbatida turklarga 100 ming boʻlak ipak matosi yuborib, poytaxti Chanʼanda faoliyat koʻrsatayotgan turkiylarga (jumladan sugʻdiylar ham) katta savdo imtiyozini berdi²⁷.

Muxan xoqon sharq va shimolda harakatlar olib borgan bir paytda, gʻarbda Buminning ukasi Istami yabgʻu harbiy harakatlar olib bordi. U uygʻurlar va Yettisuvdagi usunlarni yengib, Oʻrta Osiyo sarhadlariga yetib keldi. 555 yilda Gʻarbiy dengiz (Orol dengizi)ga chiqib, avarlar izidan Qora dengiz sohiliga qadar bordi.

Istami boshchiligidagi turkiylar 563-567 yillarda Yeftallarga kuchli zarba berib, ularning hududlarini tortib oldi.²⁸ Manbalarda, turklarning bu muaffaqiyatiga Yeron sosoniylarining yormdai katta boʻlganligi yoziladi. Toʻgʻri, Yeron shohi Xusrav I Anishervon (531-579) Istmaiga kuyov boʻlishi bilan bu ikki davlat oʻrtasida ittifoq yuzaga keladi²⁹ va shu sababli Turklar 563 yilda parak (Chirchiq)ga hujum qilganida, Sosoniylar Yeftallarga qarshi ikkinchi frontni tashkil qilib, Balxga hujum qilgan yedilar. Lekin, buyerda yana bir omil borki, buni takidlab oʻtmaslikning iloji yoʻq. U ham boʻlsa mahalliy sugʻdiylar. Albatta savol tugʻiladi, bu yerda Sugʻdiylarning qanday taʼsiri mavjud? Maʼlumki, bu davrda ipak Vizantiyada oltin va qimmatbaho toshlar bilan bir xil baholanar yedi.³⁰ Vizantiya yesa ushbu qimmatbaho tavarni Yevroʻpaga yeksport qilar yedi. Ahamiyatlisi, anashu tavarning Vizantiyaga boradigan yoʻli Yeron, undan oldin Yeftallar va to Xitoygacha Turkiy qabilalar istiqomat qiladigan dashtdan oʻtar yedi. Ipak savdosida yeng koʻp foyda oladiganlardan biri vositachi sugʻd savdogarlari yedi. Chunonchi, Turklar Yeftallar davlatiga bostirib kelganida mahalliy aholining qarshiligi sust boʻlganligi ham aynan shu bilan izohlanadi. Haqiqatdan ham Gumilyov takidlaganiday kuchayib, Xitoyga tazyiq oʻtkaza olgan turkutlar ulardan juda koʻp miqdorda ipakni toʻlov sifatida undirar yedi.³¹ Bu ipakning barchasini tabiyki ular ishlata olmas va shu sababli sotar yedilar. Agar turklar hududni

²⁵ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б – 38.

²⁶ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б – 85

²⁷ Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. - Б. 217.

²⁸ Eshov B. J. Odilov A. A. Oʻzbekiston tarixi. T.: “Yangi asr avlodi”, 2014. 235 b.

²⁹ Azamat Ziyov Oʻzbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq”, 2001. 81-82-betlar

³⁰ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б – 49

³¹ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б – 50

yegallasa mahalliy sugʻdiy savdogarlar bu ipakka yegalik qilardi.³² Qolaversa, Turklarning kirib kelashi, ulkan hududa yagona davlat vujudga kelishiga, yagona toʻlovlarning joriy yetilishidan tashqari, oldin Sugʻd savdogarlari uchun haflil boʻlgan savdo yoʻllaridagi talanchilikning oldi ham olinardi. Chunonchi, bu haqida Gumilyov quyidagilarni yozadi: “Eftalitlar magʻlub etilgach, sugʻudlar turkutxonining fuqarosiga aylanishdi. Ular azaldan Sharkda ham, Gʻarbda ham epchil tijoratchi va vositachi sifatida mashhur oʻlishgan. Eftalit xoʻjayinlari oʻrniga turkutning kelishidan ular faqat yutuqqa ega boʻldilar: endi ularga Osiyoning markaziy oʻlkalari eshiklarilang ochildi, yoʻl xavotiri yoʻqoldi. Sugʻudlar ipak tijoratini kengaytirishdan qanchalik manfaatdor boʻlsalar, oʻzlaridagi ortiqcha ipakni sotish mkoniga ega boʻlgan turkutlar ham shunchalar manfaatdor edilar.”³³

Mahalliy aholining Yeftallar davlatining Turk xoqonligi tomonidan yegallanishiga yordam koʻrsatishining yana bir sababi oldindan yuz berib kelgan turkiy hamda mahalliy aholining oʻzaro aralashuvi natijasi boʻladi. Chunonchi, Turklar bosqiniga ham sodir boʻlgan asimilatsiya jarayonlariga aholi deyarli moslashib qolgan yedi. Shu sababli, yani kirib kelgan turkiylar mutlaqo notanish dushman sifatida kutib olinmaydi. Qoʻshimcha takidlash lozimki, koʻchmanchi hayot insonlarning jangovor qobilyati va ruhining yuqori boʻlishga sabab boʻladi. Yeftallar garchi turkiy boʻlsada keyin kirib kelgan turkiylardan yengildi. Bunga sabab boʻlgan yana bir omil anashu Yeftallarning qariyb yuz yildan ortiq vaqt davomidagi mahalliy aholi bilan aralashuvi natijasida ularda ham oʻtroq aholi singari jangovorlik ruhining susayganligi yedi.

Xullas, shu tariqa turklar tomonidan Yeftallar davlati osongin zabt yetildi va bugungi Oʻzbekiston hududida asimilatsiya jarayoni yana bir yangi bosqichga koʻtarilgan yangi jarayon boshlandi.

574 yilda xoqonlik taxtiga Taspar xoqon keldi. Oʻzining muvaffaqiyatli yurishlari, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi barqaror siyosati tufayli turli qabila va elatlardan iborat saltanatni qoʻl ostiga birlashtirdi. Taspar xoqon vafot etgan 581 yilda Xitoyda ham Shimoliy Chjou sulolasi oʻrnini Suy sulolasi (581-618) egalladi. Taspardan soʻng xoqonlikda nizo va saroy kelishmovchiliklari kuchaydi. Taspar va Muxan xoqonlarning oʻgʻillari oʻrtasida taxt uchun kurash boshlanishi, imperator Ven-di uchun ayni muddao boʻldi. Qoʻmondon Chjan Sunshin rejasiga koʻra: “turklarning birligi va kuchiga putur yetkazib, ...vaqt poylab, ularga hujum qilib, davlatini tugatish kerak” edi. Shu reja asosida Xitoy uzoqdagi xoqonlarga sovgʻalar joʻnatib, yaqindagilarga hujum uyushtira boshladi.³⁴

Turklararo mojarolar sugʻdiylarni befarq qoldirmadi. Ular xoqonlikda tinchlik, barqarorlik va hamjihatlikni saqlashga harakat qildilar. Shu maqsadda sugʻd diplomatiyasi turklarni ittifoq boʻlishga va Xitoy hukmdorlarining qutqusiga uchmaslikka chaqira boshladi. Ammo “soddadil va ishonuvchan turklar” Xitoy hukmdorlarining makriga uchib, xoqonlikni halokat sari borishining oldini ololmadilar.

581 yilda hokimiyat tepasiga Nivar xoqon keldi. U 587/588 yillargacha Ishbar nomi bilan hokimiyatni boshqardi. “Bugʻut yodgorligi”da keltirilishicha, Muxan xoqonning inisi Nivar Taspar davrida “kichik xoqon” Nyetu Erfuxon nomi ostida davlatning sharqiy hududlarini boshqarib, katta tajriba orttirgan edi³⁵. U Muxan xoqonning oʻgʻli, jiyani Apa bilan taxt uchun kurashda muvaffaqiyat qozongach, xoqonlik taxtiga El Qutluq Sadbagʻa Ishbar nomi bilan keldi. Ammo Apaning magʻlubiyati va turklararo nizodan Xitoy imperatori Ven-di - Yan Szyan unumli foydalandi. U Xitoy devorini yanada mustahkamlab, katta qoʻshin toʻpladi. Shu davrdan Birinchi Turk xoqonligida siyosiy tanazzul kuchaydi. “Bugʻut yodgorligi” ning tiklanishi ham Nivar xoqon davriga (572-581 y.) toʻgʻri keladi. Shu bois bitik solnomasi Nivar xoqon davri bilan boshlangan.

Yodgorlikni bunyod ettirgan tarixiy shaxs va davlat arbobi Maxan tegin nafaqat Muxan xoqonning,

³² Mavlonov Oʻ., Mahkamaova D. Madaniy aloqalar va savdo yoʻllari. T.: “Akademiya”, 2004. 16-19-betlar.

³³ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: “фан”, 2007. Б –51

³⁴ Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. - Б. 145.

³⁵ Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари – Тошкент: ART-FLEX, 2010. - Б. 67.

balki Taspar xoqonning ham yaqini bo'lgan. Chunki Maxan tegin Tasparga otaliq vazifasini o'tagan. Xitoy manbalari 569 yildan so'ng Muxan xoqon haqida ma'lumot bermaydi. Ularda 573 yilda Tobokexan - Taspar xoqonning taxt egasi bo'lganligi bayon qilinadi. Demak, shu davr ichida Maxan tegin otaliq sifatida xoqonlikni boshqargan. Bitikning B 1 va B 2 matnlari qiyosi Maxan teginning Taspar xoqonning yordamchisi va hamfikri ekanligini ko'rsatadi. Bug'ut yodgorligi aynan Maxan tegin sharafiga tiklangani, bu shaxsning xoqonlikdagi o'rnini belgilaydi.

A. Otaxo'jayevning takidlashicha yodnomaning sug'diylar tili va yozuvida bitilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu Markaziy Osiyoga xos bo'lgan etnomadaniy jarayonlarni turk-sug'd munosabatlari misolida o'zida aks ettiradi.³⁶

603 yilda to Turk xoqonligi Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'lingunicha ham sug'diylar Birinchi Turk xoqonlariga xizmat qilishni davom ettirganlar. Jumladan, Dulan-xoqon (588-600)ning maslahatchisi An (buxorolik) Suy-sze bo'lib, u xoqonning Xitoy tajovuziga qarshi choralar ko'rishga chaqirgan. Chunki sug'diylar azaldan Turk xoqonligining mustaqil siyosat yuritishi va mintaqada yetakchi bo'lishidan manfaatdor edilar. Shu bois ular Xitoyning xoqonlik ichki ishlariga aralashuviga qarshilik qilganlar. Ammo Turk xoqonligi Sivar (581-587) va Cho'rbug'a (587-588) xoqonlardan to To'nga Turon davrigacha (588-600) 20 yil davomida Suy sulolasi tuzog'iga tushib, parchalana bordi. Oqibatda 603 yilda yagona Turk xoqonligi ikki mustaqil Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'linib ketdi³⁷.

Turklarning barcha kuchlari sharqda Ishbara hoqon va g'arbda Istaming vorisi Tardu Bo'ka xoqonlar (576-587) atrofiga birlasha bordi. Tardu Bo'ka Istami egallagan hududlarni yana kengaytirib, davlatni mustahkamladi. Bu davrda u sharqdagi nizolarga aralashib, ayrim xoqonlarni qo'llab turdi. Kurashlarda to'rtta da'vogardan uch tasi halok bo'lgach, Tardu Bo'ka o'zini sharqiy turklarning ham hukmdori deb e'lon qildi (587-603)³⁸. Ammo bu ham yagona Turk xoqonligini barqarorligiga kafolat bo'la olmadi.

603 yilda, qudratli va mintaqada yetakchi bo'lgan Birinchi Turk xoqonligi o'zaro nizolar va "uzoqni ko'rolmaslik" oqibatida bo'linib ketdi. Shunday bo'lsa-da, Sharqiy Turk xoqonligi o'zini tiklash imkoniga ega edi. 609 yilda Kimin To'ra vafot etgach, to'ng'ich o'g'li Sivar (Bug'ut yodgorligida Nivar /Zivar - A.O.) xoqon davri (609-619)ga kelib bu davlat qo'shini soni deyarli bir millionga yetdi. Bu Suy imperiyasiga qarshi harakat qilishga qodir katta kuch edi. 618 yilda Xitoydagi Suy sulolasi o'rnini Tan sulolasi egalladi. Uning birinchi imperatori Li Yuan (618-629)ga Sivar xoqon Chan'an shahrini egallashda ko'maklashgani bois imperator Li Yuan dastlabki yillarda o'zini Sivar xoqonga tobe, deb hisoblardi. Ammo 619 yilda Sivar xoqon vafot etib, taxtni Chuluk xoqon egallagach, Xitoy malikasi Ye Chin Tan hukmdorlari topshirig'iga ko'ra, 621 yilda Chuluk xoqonni zaharlab o'ldirdi. Sharqiy xoqonlik taxtiga kelgan Qora xoqon (Kolo kexan) (621-630) 622 yilda bir necha yuz ming qo'shin bilan Xitoyga yurish qilib, Xitoyni o'zga bo'ysintirdi. Imperator Li Yuan o'z elchisi orqali tinchlik sulhini tuzishga erishdi. Bu bitim Qora xoqonni to'xtatmadi. 626 yilda u Chan'andan 40 sarjin uzoqlikkacha bo'lgan hududlarni egalladi. Yangi imperator Li Shimin sovg'a-salomlar evaziga poytaxtni saqlab qoldi. Shu bilan birga u turklarga qarshi kurash yo'llarini izlay boshladi. 627 yildagi qahatchilik xoqonlikdagi ichki nizo va g'alayonlarni kuchaytirdi. Uyg'urlar qo'zg'olonini bostirish uchun 628 yilda Sivarning o'g'li To'ri va Qora xoqonning o'g'li Yogo (Yuquq) shadni yuz ming qo'shin yuborildi. Ammo bu qo'shin uyg'ur hukmdori Paso qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchradi. Uyg'ur va telelarning sirtardush tarmog'i Seyanto - Sirtardush xoqonligini vujudga keltirdi. Bu davlatni Tan imperiyasi tan oldi³⁹. Bu yangi xoqonlik 628 yildan 646 yilgacha faoliyat ko'rsatdi xolos.

³⁶ Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари – Тошкент: ART-FLEX, 2010. - Б. 81.

³⁷ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: "фан", 2007. Б – 166

³⁸ Хўжаев А, Айтбаев А., Қўлдошев Ш., Джаманиёзова. Ф. Марказий Осиё тарихи Хитой манбаларида.–Тошкент: 2016. Б–87.

³⁹ Насимхон Р. Турк хоқонлиги. Тошкент: Халқ мероси, 1993. Б- 45.

629-630 yillarda Tan imperiyasi sharqiy turklar davlatini qulatishga jiddiy kirishdi. Imperator Tay Szang (626-649) turklaro ichki nizolarni kuchaytirdi. Turklardan bo'lgan Chjishi Sili, Ashina Sher va Sibi Xelilarning Xitoy tomoniga o'tib ketishi turklar uchun katta yo'qotish bo'ldi. Sharqiy turklarga qarshi Li Szin qo'mondonligidagi yuz ming qo'shin yuborilib, 629 yil noyabridagi Chog'ay etagidagi jangda Qora xoqon mag'lub bo'ldi. Turk sardorlaridan biri Ashina Sunish Qora xoqonni tutib Li Szin qo'lga topshirdi. Qoraxon Chan'anga keltirilib, u yerda 634 yili vafot etdi. Bu xiyonat turklarga qimmatga tushdi. 630 yildan 682 yilgacha Sharqiy Turk xoqonligi Xitoy vassaliga aylandi.⁴⁰

Sharqiy turklar Xitoy asoratiga tushgan 630 yilda samarqandlik Kan Su-mi va buxorolik An Tu-xan boshchiligida xoqonlik hududiga Sug'ddan besh ming kishi olib borilgan. Ehtimol bu kuch sharqiy turklarga yordam uchun kelgan bo'lishi mumkin. Chunki An Tu-xanning otasi An U-xuan bu davrda Sharqiy Turk xoqoni saroyida xizmatda bo'lib, eltabar unvoniga ega edi. Ma'lumki, ba'zan xitoylar sug'diylarni turklar orasidagi bir qabila sifatida bilganlar. Bu ilk o'rta asrlarda sug'diylarning nafaqat hukmdorlarning, balki butun turk ulusining ajralmas qismiga aylanib ulgurganini isbotlaydi. Shundan bo'lsa kerak, Xitoyning sharqiy turklarga tajavvuzi kuchaygan bir paytda Kan Su-mi va An Tu-xanlar boshchiligida sug'diy kuchlarning yetib kelishi iqtisoddan ko'ra ko'proq siyosiy ahamiyat kasb etgan. Bu paytda turklar sug'diylarning har tomonlama ko'magiga muhtoj edilar. Turk-sug'd ittifoqi bu vaziyatda muhim hisoblangan. Sharqiy Turk xoqonligining tang ahvolidan xabar topgan Sug'd tomoni ushbu guruhni yuborgan bo'lishlari ham mumkin. Xitoylar bejizga sug'diylarni "turklarni yo'naltiruvchi kuchi", - deb bilmagan.

630 yildagi Sharqiy Turk xoqoni Qora xoqonning mag'lubiyati bilan boshlangan tanazzul oqibatida minglab sug'diylar ham Xitoyga asir olib ketildi. Ular asosan dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar edi. Buyuk Xitoy devorining bu tomoni - Ordosdagi sug'diylar esa Tan saroyiga mato yetkazib, o'lpon to'lashga majbur etilgan. 650 yilda Xitoy vassalligidan bosh tortgan, "kichik xon"lardan biri Cho'bi boshchiligidagi qo'zg'olon xitoyliklarni sergak torttirdi. Bu davr haqida Kultegin bitigining 9-10 qatorlarida: "Turk fuqarosi, barcha xalq shunday debdi: davlatli xalq edim, davlatim qani endi? Kimga davlatni egallab beryapman? - der ekan. Xoqonli xalq edim, xoqonim qani? Qaysi xoqonga mehnatimni, kuchimni sarf qilyapman? - der ekan. Shunday debdi-yu baribir tabg'ach xoqonga qaram bo'libdi. Qarshi bo'lib o'zini eplab va tiklab ololmay, yana taslim bo'libdi", - deyiladi. Xitoy imperatorlarining turk qo'shinlaridan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanganliklari haqida Kultegin bitigining 8-qatorida: "Ellik yilmehnatini, kuchini sarf qilibdi. Sharqqa - kun chiqarga Bo'kli (shimoliy Koreya) xoqoniga lashkar tortib boribdi. G'arbga - Temir darvozaga lashkar tortib boribdi. Tabg'ach xoqonga ularning davlatini, hukumatini olib beribdi"⁴¹, - deyilgan. Bu satrlar turklarning xitoyliklar asoratiga tushib, og'ir ahvolda qolganliklarini isbotlaydi.

Asirlar Xitoy devorining narigi tomoniga olib o'tildi. Bo'ysunmagan turklarning bir qismi G'arbiy Turk xoqonligi hududiga - Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyoga, bir qismi sharqiy uyg'urlarga kelib qo'shildi. 639 yilda imperator Li Shimin sharqiy turklarga Ashina Sirba - Li Simani hukmdor etib tayinladi. Biroq bu "qo'g'irchoq" hukumatni turklar tan olmad. Mustaqillik kurashiga 630 yilda Chan'anga asir qilib keltirilgan Sivar (Chuluk)ning kichik o'g'li Ko'rshod boshchilik qildi. Turklar Ko'rshodni xoqon deb e'lon qilishdi. Ammo Ko'rshod vorislikka o'z jiyanlaridan biri taklif etdi. 639 yilning aprelda uning guruhi Tan imperatori Li Shiminni asir olishga harakat qildi. Ammo reja amalga oshmagach, Ko'rshod saroyga hujum qilib, imperatorni asir olishga qaror qildi. Tengsiz to'qnashuvdan so'ng qo'zg'olonchilar Veyxe daryosi bo'yida tor-mor etildi. Bu voqeya tafsilotlari Sima Guanning "Xronika" ("Solnoma") asarining 195-betida Jun Guanning 13-yilidagi voqeyalar bayonida keltirgan.⁴²

⁴⁰ Бобоёров Ф.Б. Тун ябгу хоқон. – Тошкент: Халқ мероси, 2011. Б- 34.

⁴¹ Раҳмонов Н. Турк хоқонлиги. - Б. 54.

⁴² Xo'jayev A., Xo'jayev K. Qadimgi manbalarda xalqimiz o'tmishi. – Toshkent: Ma'naviyat, B - 29.

Sharqiy turklar Xitoy asoratiga qarshi 658 yilda bosh ko'tardi. Bu safar ham Tan va turkiy tele qo'shinlari isyonchi Ashina Xeluga zarba berdi. Uzoq yillik kurashlar natijasida Ashina Nezuk davridan keyin (679-680) sharqiy turklar mustaqillik uchun jiddiy kurash boshlandi. Ashina sardorlari Ashina Nizukni taxtga ko'tardilar. Ammo u xitoylar bilan jangda xalok bo'ldi. O'rniga saylangan Ashina Inan ham 681 yilda xitoy josuslari tomonidan o'g'irlanib, Chan'anda o'ldirildi. Turklar Qutlug' boshchiligida qo'shin to'plashdi. Uning maslahatchisi Bilga To'nyuquq bitigida shunday deyiladi: "Turk xalqi yo'q bo'lmasin deb, xalq bo'lsin deb, otam Eltarish xoqonni, onam Elbilga xotunni tangri o'z martabasida tutib yuqori ko'targan ekan. Xoqon otam o'n yetti er bilan chetga chiqib ketgan". Xitoy zindonlarida yotib, hatto imperator saroyida xizmat qilishga erishgan To'nyuquq Xitoy armiyasining zaif tomonlarini yaxshi bilardi. Qutlug' qo'shinlari To'nyuquq bitigida ko'rsatilishicha, "ikki qism otliq, bir qismi piyoda edi. Yetti yuz kishini uyushtiradigan ulug'i shad edi". Qutlug' qo'shinlari soni o'n ikki ming kishiga yetdi⁴³. 682 yilda sardorlar uni taxtga ko'tardi. Xitoy bilan janglar zafar bilan tugadi. Sharqiy Turk xoqonligi tiklangach, Ashina Qutluqqa Eltarish - "elni tiklovchi unvoni berildi Bu ozodlik kurashida turklar qatorida sug'diylar ham ishtirok etgan edi. Yuqorida aytilgan Kan Su-mi va An Tu-xanlar boshchiligida xoqonlikka kelgan sug'diylar va bu hududda asrlar davomida yashayotgan sug'diylar bu voqyealarga befarq qarab tura olmas edi. Chunki xoqonlikning tiklanishi har jihatdan mintaqadagi iqtisodiy va siyosiy vaziyatga ijobiy ta'sir etardi.

Sug'diylarning ozodlik kurashdagi ishtirokini 692 yilda Sharqiy Turk xoqoni bo'lgan Qapog'on (Mochjo)ning Xitoy devori ichkarisidagi sug'diylarni qaytarish maqsadida harbiy kuch ishlatib, sug'diylarning avlodlarini oltmish yillik tutqinlikdan so'ng ortga qaytarishga muvaffaq bo'lganligida ham ko'rish mumkin. Bunda Turk aslzodalaridan birining kuyovi An Yan-yan kabi sug'diy sarkardalar jonbozlik ko'rsatishdi. Bu ular o'zaro bir-birlarining taqdiriga befarq bo'lmaganligini va turk-sug'd munosabatlarining siyosiy ahamiyat kasb etganligining isbotidir.⁴⁴

Xitoyga olib ketilgan sug'diylarning ayrimlari Tan imperiyasi xizmatiga tortilib, hatto yuqori lavozimlarga erishishga ham muvaffaq bo'ldi. Loyang shahridan topilgan Kan Moji ismli sug'diy harbiy amaldorning qabri va undan topilgan yozma ma'lumotlar⁴⁵, Tan saroyidagi sug'diylarning yuksak martabasidan dalolat beradi. Eltarish o'rmini egallagan Mochjo - Qapog'on xoqon davrida (692-716) yana turklarning xitoyliklardan ustivorligi ta'minlandi. Shimoliy Xitoyda turklar hukmronligi o'rnatildi. 716 yili Qapog'on xoqon uyg'urlarning boyirg'u qabilasi pistirmasiga tushib xalok bo'ldi. Sharqiy Turk xoqonligi taxtiga Eltarish o'g'illari Kultegin va Mogilyanlar keldi. Ular bosh-boshdoqlikka chek qo'yidilar. Kultegin o'z akasi Mogilyanni "Buyuk xoqon" yoki Bilga xoqon deb ulug'ladi. Bilga To'nyuquq esa Bilga xoqon saroyida xizmat qildi. Kultegin esa lashkarboshi etib tayinlandi⁴⁶. Aka-ukalar o'rtasidagi bu murosa ichki nizolarga barham bergan va dushman oldida davlat qudratini oshirgan. Sharqiy Turk xoqoni Ashina Bilga Qutlug' davriga (734-741) kelib, xoqonlikning otliq qo'shinlari soni 220 mingga yetdi. Tan imperiyasi o'z shimoliy chegarasida 400 ming qo'shinni saqlab turishga majbur bo'ldi. Ammo bu holat uzoq davom etmadi. O'zmish (742-744) va Bo'lmish (744-745)⁴⁷ xoqonlar davrida Sharqiy Turk xoqonligi avvalgi qudratini yo'qotdi.

Birinchi Turk xoqonligi ellik yil (552-603) butun mintaqada yetakchi bo'lib o'z boshidan sakkizta hukmdorni o'tkazgan bo'lsa, Sharqiy Turk xoqonliginingda 140 yillik (603-745) tarixida 21 hukmdor almashdi. G'arbda xoqonlik Istemi yabg'u xoqondan (552-576) to Ashina O'n O'q (738-742) davrigacha 24 hukmdor almashib, bu davlat 190 yil yashadi. VIII asr 40-yillarida bir paytlar yagona bo'lgan Birinchi Turk xoqonligi va uning vorislari Sharqiy va G'arbiy Turk xoqonliklari tarix

⁴³ Раҳмонов Н. Турк хоқонлиги. - Б. 56; Эрол Гунг'ур. Тарихда туркий давлатлар. - Б. 8.

⁴⁴ Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари – Тошкент: ART-FLEX, 2010. - Б. 85.

⁴⁵ Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. - Б. 217.

⁴⁶ Раҳмонов Н. Турк хоқонлиги. - Б. 57-58.

⁴⁷ Гумилев Л.Н. Қадимги Турклар. Тошкент: "фан", 2007. Б – 177.

sahnasidan tushdi. Ammo mintaqa siyosiy maydoniga yangi turk davlatlari kirib keldi. Suy va Tan sulolalarining turkiy davlatchilikni batamom tugatish harakatlari zoje ketdi. Turkiylarning deyarli ikki asr mintaqada yetakchilik qilishlarida yaqin ittifoqchisi Sug'd va sug'diylar bilan siyosiy va iqtisodiy jihatdan munosabatlari muhim o'rin tutgan. Turk-sug'd munosabatlari nafaqat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar orqali, balki asrlar davomida shakllangan qon-qardoshlik aloqalari orqali ham o'z ahamiyatini ko'rsatdi. Turkiylar uchun sug'diylar azaliy birodar, ishonchli ittifoqchi, eng sobit hamkor bo'lib qoldi. Ilk o'rta asrlar uchun fenomen bo'lgan, tarixi va taqdiri mushtarak bog'langan turk-sug'd etnomadaniy simbioz holati hukm surardi.

Shu tariqa, milodiy birinchi ming yillikning ikkinchi yarmida Eftaliylar va Ashina avlodlari asos solgan Turk xoqonligi jahon tarixida o'z munosib o'riniga ega bo'ldi. V -VI asrlarda bu davlatlar mintaqada yangi siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi. Mavjud shart-sharoitlar O'zbekistonda yashagan turli etnik qatlamlar, xususan, turkiylar va sug'diylar orasida migrasion, integrasion jarayonlarni kuchaytirdi. Birinchi Eftalitlar va Turk xoqonligi o'zidan avvalgi ko'chmanchi davlatlar (Xunlar, Kidariylar, Xioniylar)dan farqli ma'muriy boshqaruv tizimini tashkil etishda, ichki va tashqi siyosiy faoliyatda, iqtisodiy taraqqiyotda va madaniy hayotda katta o'zgarishlarni amalga oshirishib, ayniqsa o'troq xalqlar bilan yaqin aloqalarga kirishdi. Bunda ularga Sug'd va sug'diylar katta yordam ko'rsatgani e'tirofqa loyiqdir. Jumladan, Bumin xizmatidagi Annapanto, Dulon (Turon) xizmatidagi An Suy-sze, Istemi xizmatidagi Maniakh kabilar o'z faoliyatlari bilan turkiy davlatchilik taraqqiyoti uchun xizmat qilganligi kuzatiladi. Ammo 603 yilda xoqonlik ikki davlatga ajraldi. Bu mintaqa siyosiy haritasiga muayyan o'zgarishlar olib kirdi. Asosan o'troq aholi jamlangan G'arbiy Turk yabg'uligi o'z e'tiborini Vizantiya va Eron bilan munosabatlarga qaratgandi. Shunday bo'lsa-da, Eftallar va Turk xoqonliklari Buyuk Ipak yo'lida nazorat o'rnatishga erishdilar. Bunda Maniakh, Esxil, Tag'ma Tarxon kabi sug'diy va turkiy diplomatlarning xizmatlari beqiyosdir. Qolaversa, Turk xoqonligi va undan keyin vujudga kelgan turkiy davlatlar mintaqada kechgan tarixiy jarayonlarda ishtirok etgan turli-tuman etnoslararo azaliy simbioz, madaniyatlar sinkretlashuvi va etnik assimiliyasiyalar rivojiga hamda turkiy davlatchilikning shakllanishi va rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatdi.